UO‘K 94 (575.1)

TURKISTON ASSRDA KOOPERATSIYA HARAKATI VA UNING XUSUSIYATLARI
(1918–1921-yillar)

M.G‘. Abdullayev, A.A. G‘aniyev

Maqolada sovet hokimiyatining ilk yillarida Turkiston ASSRda qishloq xo‘jalik kooperatsiyasining vujudga kelishi va faoliyati masalalari tahlil etilgan. Qishloq xo‘jaligidagi kollektiv xo‘jaliklarning dastlabki ko‘rinishlari va uning turlari, o‘lkadagi kooperatsiya harakatining xususiyati ochilgan, paxtachilikka ixtisoslashgan kooperativlar miqdori va faoliyati, kooperativ a’zolari va ularning soni haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Turkiston ASSR, sovet rejimi, agrar siyosat, kooperatsiya, TOZ, qishloq xo‘jalik arteli, qishloq xo‘jalik kommunasi, paxtachilik kooperativlari, kolxoz, “harbiy kommunizm*”.

В статье проанализированы вопросы становления и функционирования сельскохозяйственной кооперации в Туркестанской АССР в первые годы советской власти. Были раскрыты первичные формы коллективных хозяйств в сельском хозяйстве и их виды, кооперативное движение в крае и его специфика, обобщены информации о количестве и деятельности кооперативов специализирующихся на хлопководстве, численности членов кооперативов.

Ключевые слова: *Туркестанская АССР, советский режим, аграрная политика, кооперация, ТОЗ, сельскохозяйственная артель, сельскохозяйственная коммуна, хлопковые кооперативы, колхоз, “военный коммунизм”.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi munosabati bilan qishloq xo‘jaligida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Sovet davridan meros bo‘lib kelgan kolxoz va sovxozlar o‘rnida dastavval jamoa xo‘jaliklari, keyinroq esa kooperativ (shirkat) xo‘jaliklari tashkil etildi, 1990-yillar o‘rtalaridan esa ularning o‘rnida xususiy mulkchilikka asoslangan dehqon-fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi.

Hozirgi bosqichda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi murakkab tiklanish va rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 14-iyundagi №295-XII “Kooperatsiya to‘g‘risida” Qonunining [1] o‘tgan yillar davomida amalga oshirilishi, mamlakat agrar sektorini isloh qilish bo‘yicha o‘tkazilgan islohotlar dehqon-fermer xo‘jaliklarini qayta tashkil etish va rivojlantirishning qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini zamon talablariga moslashni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari va usullarini belgilash zarurligini ko‘rsatmoqda. Zero, qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini o‘z ichiga olgan xo‘jalik yuritishning eng maqbul shakllarini ishlab chiqish qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yordam beradi.

Tarixiylik nuqtai nazaridan, O‘zbekistonda kooperatsiya qurilishi faoliyati tajribasini, ayniqsa, sovet hokimiyati yillaridagi davlat va kooperatsiya o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning yakka dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirishdagi haqiqiy rolini ko‘rib chiqish va tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Kooperativ qurilishning tarixiy tajribasini bugungi kundagi agrar islohotlarga samarali qo‘llash uchun ushbu ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va tamoyillaridan qay darajada foydalanish yoki ma’lum bir tamoyillaridan voz kechishni aniqlab olish ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqotda foydalanilgan materiallar, asosan, Turkiston ASSRda kooperatsiya qurilishi masalalarini yorituvchi arxiv materiallari, mavzuga bevosita aloqador ilmiy adabiyotlar, Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar aks etgan statistik to‘plamlardan iborat. Ushbu materiallar tadqiqotda tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil etildi.

Tadqiqotda tarixiylik, obyektivlik, qiyosiy tahlil, tarixiy-xronologik, analiz va sintez, aniq tarixiy sharoitga oid raqam va dalillarga tayanish kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Ma’lumki, dehqon xo‘jaliklarini kooperatsiyalashtirishning nazariy-metodologik asoslari K.Marks va F.Engelsning “sotsialistik qurilish” masalasiga doir ta’limotlarida ilgari surilgan. Ular nazariy jihatdan kelib chiqib, mayda dehqon xo‘jaliklari yakka faoliyati natijasida taraqqiyotga erisha olmaydilar, shu bois ularni dehqonlar uyushmasi bo‘lgan kollektiv tashkilot – kooperatsiyalarga birlashtirish g‘oyasini ilgari surganlar [2. B. 12].

Kooperatsiya haqidagi markscha g‘oyalar keyinchalik bolsheviklar yetakchisi Lenin tomonidan rivojlantirildi. U Oktyabr to‘ntarishidan avval va to‘ntarishidan keyingi jarayonda kooperativ qurilishning amaliy rejalarini ishlab chiqdi. Biroq, shuni qayd etib o‘tish o‘rinliki, Leninning kooperatsiyaga bo‘lgan munosabati doim ham bir xil va aniq bo‘lmagan. Uning bu boradagi qarashlari mamlakatdagi umumiy holatga ko‘ra o‘zgarib turgan. Uning umumiy qarashi kooperatsiyalar roli va funksiyalarini bosqichma-bosqich kengaytirib borishga yo‘naltirilgan. Buning tarkibiy qismida kooperatsiyani mafkuralashtirish yetakchi bo‘g‘inni tashkil etadi. U kooperativ harakat rivojini faqat kooperatsiya va sotsializm hamkorligi, ya’ni bozor munosabatlarisiz, monopolistik davlat sotsializmi kontekstida talqin qilgan. Shu bilan birga, aytib o‘tish joizki, Lenin o‘z inqilobiy faoliyatining birinchi bosqichida dehqonlar ommasi o‘rtasida kooperativlarning turli formalarini tashkil etish masalasini qo‘ymagan edi. Bunday yondashuv 1917-yil oxirlarigacha davom etgan. Lenin ro‘yxatga olish va taqsimlash bilan shug‘ullanuvchi matlubot kooperativlarining o‘ziga tayangan holda bozorsiz sotsializm barpo etish g‘oyasini ilgari surgandi [3. B. 242].

Sovet hokimiyatining ilk pallasida Turkiston o‘lkasining xalq xo‘jaligi birinchi jahon urushi va oktyabr to‘ntarishi natijasida yuzaga kelgan umumiy vayronagarchilik va qahatchilik holatini boshidan kechirayotgan edi. 1917-yilda Turkistonda ekin ekiladigan maydonlar 1915-yildagi 3,5 million desyatinadan 2,3 million desyatinaga qisqarib ketgan edi. Qishloq xo‘jaligining tanazzuli 1917-yildagi qurg‘oqchilik tufayli yanada keskinlashdi, bu vaqtda butun o‘lkada bor-yo‘g‘i 52 million pud g‘alla yetishtirildi, vaholanki, g‘allaga bo‘lgan ehtiyoj 111 million pudni tashkil etar edi. Natijada Turkiston o‘lkasida ocharchilik boshlandi. Rossiyadan sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini olib kelish tobora qisqarib borishi natijasida qimmatchilik to‘xtovsiz ortib bordi [4. B. 102].

Turkiston ASSR aholisi tarkibi o‘lkada ishlab chiqarishning agrar xarakterda ekanini ko‘rsatib turardi. 1921-yilda respublika aholisining 79,6 foizi qishloq, 20,4 foizi shahar aholisi edi. Ammo shahar aholisining bir qismi qishloq xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bog‘dorchilik, polizchilik va uzumchilik bilan shug‘ullanardi. Turkiston ASSR aholisi kasbiga qarab quyidagicha bo‘lingan edi: aholining 80 foizidan ko‘prog‘i turli ijtimoiy guruhlarga mansub dehqonlar, 10 foizga yaqini kosib va hunarmandlar, 4-5 foizi yirik va o‘rta sanoat ishchilari, aholining qolgan qismi mahalliy sanoatchi-sarmoyadorlar vakillaridan iborat edi [5. B. 361].

Turkistonda bolsheviklar hokimiyati o‘rnatilganidan keyin bu yerda ham agrar masalani bolshevikchasiga hal qilish borasida harakatlar boshlandi. Turkiston o‘lka Xalq Komissarligi Sovetining 1917-yil 9-dekabrdagi qarori bilan yer oldi-sotdisi bekor qilindi, yerni ijaraga berish Sovet hokimiyati organlari ruxsati bilangina faqat bir yil muddatgacha deb belgilab qo‘yildi [6. B. 34-37]. Muvaqqat hukumat tomonidan tashkil etilgan yer ishlari boshqarmasi va ko‘chiruv komitetlari faoliyatlari to‘xtatib qo‘yildi.

Agrar masalaga daxldor qonunlar 1918-yil

boshlarida qabul qilindi. 27-yanvarda Turkiston o‘lka ishchi va soldat deputatlari Sovetining IV syezdi yer-suv komitetlari haqidagi qonunni tasdiqladi. Yer-suv komitetlariga sovet yer siyosatini amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Turkiston Sovetlarining 1918-yil aprel oyida bo‘lgan V syezdi yerni davlat tasarrufiga olish haqida qonun qabul qilib, yirik yer egalaridan yer-suvni musodara qilish va yersiz dehqonlarga taqsimlash qoidalari belgilandi [6. B. 48-51]. Yer to‘g‘risidagi dekretni amalga oshirish yuzasidan barcha sug‘orish inshootlari – kanallar, irrigatsiya tarmoqlari yer ishlari komissarligi tasarrufiga o‘tkazildi.

Vayronagarchilik va ocharchilik sharoitida mamlakat hukumati kooperativ tashkilotlarni saqlab qolish choralarini ko‘rdi. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 12-apreldagi “Matlubot kooperativ tashkilotlari to‘g‘risida”gi dekreti bilan kooperatsiya xom ashyo sotib olish va mahsulot tayyorlash, mahsulotni aholi o‘rtasida taqsimlash bilan shug‘ullandi. 1918–1919-yillarda qishloq xo‘jalik kooperativlari 25,6 million pud g‘alla tayyorlashga muvaffaq bo‘ldi. Bu butun mamlakatda yetishtirilgan yalpi g‘alla hosilining chorak qismini tashkil etdi [7. B. 318].

Bu davrda dehqonlar ommasini kooperativlashtirish shahar va qishloq o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning uchta asosiy shakli bo‘yicha amalga oshirildi: matlubot kooperativlari, qishloq xo‘jaligi kooperativlari va kredit kooperativlari. Qishloqlarda kollektiv xo‘jaliklarning ham turli shakllari vujudga kela boshladi: yerni birgalikda ishlash bo‘yicha shirkatlar (TOZ), qishloq xo‘jaligi kommunalari, qishloq xo‘jaligi artellari.

Dehqonlarning eng oddiy ishlab chiqarish birlashmasi bo‘lgan yerni birgalikda ishlash bo‘yicha shirkatlar (TOZ) ishlab chiqarish vositalariga shaxsiy mulkchilikni saqlab qolgan holda yer va mehnatni ixtiyoriy umumlashtirishni nazarda tutuvchi kollektiv xo‘jaligi shaklidir. TOZlarda faqat shirkat daromadlari evaziga sotib olingan mashina va asboblargina umumiy mulk bo‘ladi. Dehqonlarga tegishli bo‘lgan ishchi hayvonlar va asbob-uskunalar faqat qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish davrida egalarining roziligi bilan birlashtirilgan. TOZlarda daromadlar umumlashgan iqtisodiyotga kiritilgan mehnat miqdori va sifatiga, birgalikda foydalanish uchun berilgan ishlab chiqarish vositalarining ulushiga qarab taqsimlangan. TOZlar sovet hokimiyatining ilk yillaridanoq tashkil topib, faoliyat yurita boshlagan, ular qishloq xo‘jaligini yoppasiga kollektivlashtirish arafasida (1929) kollektiv xo‘jaliklar umumiy sonining 60 foizdan ortig‘ini tashkil qilgan [8. B. 135.].

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida paydo bo‘lgan ishlab chiqarish kooperatsiyasi shakllaridan biri qishloq xo‘jaligi kommunasi edi. Qishloq xo‘jaligi kommunalarida barcha ishlab chiqarish vositalari (binolar, ishlab chiqarish asbob-uskunalari, chorva mollari) va yerdan foydalanish umumiylashtirilgan. Qishloq xo‘jaligi kommunasida iste’mol va maishiy xizmat ko‘rsatish butunlay umumiy xo‘jalikka asoslangan, ishlab topilgan daromad va mahsulot mehnatga ko‘ra emas, balki ishtirokchilar soniga qarab teng taqsimlangan [8. B. 136].

Qishloq xo‘jaligi kommunasi a’zolarining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari bo‘lmagan. Qishloq xo‘jaligi kommunalari asosan sobiq katta yer egalaridan musodara qilingan yerlarda, butunlay yersiz va mulksiz dehqonlardan iborat holda tashkil etilgan bo‘lib, kommuna a’zolari yerdan tashqari turar-joy, xo‘jalik inshootlari va boshqa ishlab chiqarish vositalarini ham davlatdan bepul olganlar. Qishloq xo‘jalik kommunalari kollektiv xo‘jalik shakllari ichida nisbatan kam ommalashgan shakl bo‘lib, kolxoz harakatining rivojlanishi bilan ular kooperatsiyaning hayotiy bo‘lmagan shakliga aylandi. Chunki ular kishilarda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarga rag‘batlantirmas, mehnat natijalari bo‘yicha moddiy qiziqish uyg‘unligini ta’minlamas edi. Shuning uchun XX asr 20-yillarining oxiri – 30-yillarining boshlarida qishloq xo‘jalik kommunalari to‘liq kolxozlarga aylantirildi.

Qishloq xo‘jaligi arteli kollektiv xo‘jalik shakllaridan biridir. Qishloq xo‘jalik artellarida yerdan foydalanish, mehnat va asosiy ishlab chiqarish vositalari – ishchi hayvonlar, mashinalar, asbob-uskunalar, mahsuldor chorva mollari, xo‘jalik inshootlari va boshqalar umumiylashtiriladi. Artel a’zosining shaxsiy mulkida turar-joy binosi va yordamchi xo‘jaliklari (shu jumladan, mahsulot beruvchi chorva hayvonlari) qolgan bo‘lib, ularning hajmi artel ustavi bilan belgilangan. Daromadlar a’zolarning mehnati miqdori va

sifatiga qarab (ish kunlari bo‘yicha) taqsimlangan. Artel kolxozchilarning shaxsiy manfaatlari va jamoat, umumxalq manfaatlarining uyg‘unligini ma’lum ma’noda ta’minlagan. 1929-yil iyun holatiga ko‘ra, sovet mamlakatidagi barcha kooperativlarning 6,2 foizini kommunalar, 60,2 foizini TOZlar, 33,6 foizini qishloq xo‘jaligi artellari tashkil etgan [9. B. 272]. XX asr 30-yillari boshlarida aksariyat kommunalar va TOZlar qishloq xo‘jaligi artelining Ustaviga o‘tadi. Artel qishloq xo‘jaligida kooperatsiya tizimining asosiy, keyinroq esa yagona shakliga aylanadi. Kelgusida “qishloq xo‘jaligi arteli” nomi o‘z ma’nosini yo‘qotadi va huquqiy-me’yoriy hujjatlarda “kolxoz” nomi qo‘llanila boshlanadi.

Turkistonda kollektiv xo‘jaliklar tashkil etish tajribasi 1918-yil bahoridan boshlandi. 1918-yil mart oyi oxirida Toshkent uyezdi Zangiota volostida yirik yer egasi Dadajonovning musodara qilingan yerlarida dastlabki qishloq xo‘jalik kommunasi tashkil qilingan. Turkistonning turli joylarida shu davrdan e’tiboran kolxozlar tashkil etish harakati ham boshlandi. Ayni paytda bu kolxozlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan dastlabki sovet tizimidagi qishloq xo‘jalik kooperativlari ham tuzila boshlandi. 1918-yilning aprelida Xo‘jand uyezdining Orol volostida “Parchayuz” nomli sug‘orish kooperativi tuzilgan va bu kooperativga 175 xo‘jalik birlashtirilgan. “Parchayuz” qishloq xo‘jalik kooperativi 50 desyatina ishlov beriladigan yerga va 2 ming desyatina ishlov berilmagan yerlarga xizmat ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan [10. B. 162]. Xuddi shu davrda Xo‘jand uyezdining Sarito‘rg‘ay qishlog‘ida 1160 kishini birlashtirgan va 1200 desyatina yerga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik kommunasi tashkil etildi. Umuman, 1918-yilning bahorida o‘lkada 18 ta qishloq xo‘jalik arteli va kommunalari tuzildi. 1918-yil oxiriga kelib Turkistonda 100 ga yaqin qishloq xo‘jalik artellari faoliyat ko‘rsata boshladi [5. B. 362].

Sovet mamlakatida boshlanib ketgan fuqarolar urushi sharoitida sovet hukumati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq favqulodda choralar ham qo‘lladi. Bu davr tarixda “harbiy kommunizm” siyosati deb nom qoldirgan. Bu davrda oziq-ovqat razverstkasi joriy etilib, xususiy savdo taqiqlangan hamda butun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ustidan davlat nazorati o‘rnatilgan. Dehqon xo‘jaliklarining ommaviy uyushmasi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi kooperatsiyalari faoliyati ham shu prinsiplarga bo‘ysundirildi. Kooperatsiyalarning amaldagi faoliyatiga chek qo‘yilib, ular harbiy kommunizm davri talablariga moslashtirila boshlandi. 1918-yildayoq bolsheviklar kooperatsiyalarni umumlashtirib yagona kooperatsiyaga asos solish g‘oyasini o‘rtaga tashlagan edilar. Yagona kooperatsiya g‘oyasi asosida ishlab chiqarish-iste’mol kommunalarini tuzish va ularga xizmat ko‘rsatish maqsadi yotar edi.

1918-yil boshlaridan esa Lenin nisbatan murakkab kooperatsiya tuzilmasi haqidagi tezislarini ilgari sura boshlaydi. Lekin bunda ham kooperativlar natsionalizatsiya qilingan yerlarni, zavod va fabrikalarni to‘la qamrab olishi lozim edi. Bu bilan u kooperatsiya bilan sotsializmni yana yonma-yon qo‘yib rivojlantirish pozitsiyasida turgan. Bu davrda kooperatsiya qurilishini majburan transformatsiya qilish masalasi ham kun tartibidan o‘rin egallay boshladi. Bu yondashuv, ayniqsa, “harbiy kommunizm” davrida juda keskin tus oldi. Bu davrda kooperatsiyaning ijtimoiy mohiyati amaliy jihatdan tamoman o‘zgartirib yuborildi va u davlatning xo‘jalik organiga aylantirildi.

Turkiston ASSR qishloq xo‘jaligida paxtachilik kooperativlarini tashkil etish tajribasi ko‘proq kuzatildi. Bu kabi kooperativlar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ldi. Respublikadagi natsionalizatsiya qilingan har bir paxta tozalash zavodiga paxta yetishtiruvchi muayyan volostlar biriktirilib, paxta yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan har bir qishloqlarda kooperativlar tashkil etildi. Bu kabi kooperativlar boshqaruvi 3 kishidan iborat bo‘lib, ular kooperativ a’zolarining umumiy yig‘ilishida saylangan. Kooperativning paxta zavodi bilan munosabatlari kooperativ a’zolari tomonidan saylanadigan alohida vakil orqali amalga oshirilgan. Vakillar maxsus ishonchnoma bo‘yicha paxta zavodlaridan bahorgi ekin ishlari uchun avans puli olgan, shuningdek, paxta zavodiga topshirilgan paxta xom ashyosi evaziga zavod tomonidan berilgan urug‘lik, oziq-ovqat, ishlab chiqarish vositalari va pul mablag‘larini kooperativ a’zolariga tegishlicha taqsimlash bilan ham shug‘ullangan [6. B. 246].

1919-yilda butun Turkiston o‘lkasi bo‘yicha 12 ta paxtachilik kooperativi tashkil etilib, ular

o‘zida 73 ming dehqon xo‘jaliklarini birlashtirgan edi. 1920-yilda esa paxtachilik kooperativlari 56 taga yetib, ularning tarkibida 112 ming kishi bor edi [11. B. 54].

Bolsheviklar rejimining xususiy mulkchilikni yo‘qotishga, xo‘jalik hayotining barcha sohalarida ijtimoiy-davlat mulkchiligini avj oldirishga, xalq xo‘jaligiga rahbarlikni nihoyatda markazlashtirishga, shu bilan birga, iqtisodiy usullar bilan emas, balki ma’muriy-buyruqbozlik usullari bilan ish yuritishga qaratilgan iqtisodiy siyosati ocharchilik va vayronagarchilikni yanada avj oldirdi. Oziq-ovqat tanqisligidan yuzaga kelgan qiyinchiliklar paxtakorlarni ham donli ekinlar yetishtirishga majbur qilib qo‘ygan edi. Iqtisodiyotning izdan chiqqanligi jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga olib keldi. Turkiston aholisi oziq-ovqat va keng iste’mol mollari yetishmasligidan qiynalmoqda edi. Oziq-ovqat mahsulotlarining bozor narxlari juda oshib ketgan edi. Ayniqsa, Turkiston ASSRning oziq-ovqat ta’minoti ahvoli 1920-yilda va 1921 yilning boshida g‘oyat og‘ir edi.

1919-yilning 28-yanvarida RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining yig‘ilishida burjua tipidagi kooperatsiyalardan butun aholini birlashtiruvchi kommunistik kooperatsiyalar tizimiga o‘tish yo‘llari muhokama qilindi. 1919-yil 2-fevralida Lenin oziq-ovqat va moliya xalq komissarliklariga xat yo‘llab, eski kooperatsiya tizimidan yangi kommuna ko‘rinishidagi kooperatsiyalarga o‘tish tizimini ishlab chiqish vazifasini topshiradi. RKP(b) programmasining iqtisodiy qismida ham “butun aholini ishlab chiqarish-iste’mol kommunalari atrofiga birlashtirish zarur”ligi ta’kidlangan edi. Kooperativlar bu maqsadga erishishdagi asosiy vosita sifatida belgilangan [12. B. 104].

1919-yil 20-martda Xalq Komissarlari Sovetining Matlubot kommunalari haqidagi dekreti e’lon qilindi. Dekretda ommaviy taqsimotning asosiy apparati kooperatsiya ekanligi, uning ko‘p yillik an’analari va tajribasi asosan saqlab qolinganligi aytilgan edi. Dekretda kooperatsiya tizimidagi tengsizliklarga barham berilishi, barcha fuqarolarga bir xilda, tenglik asosida xizmat ko‘rsatilishi alohida qayd qilingan edi.

1920-yilda kooperatsiyalarni “sotsialistik asosda qayta tashkil etish” davom etdi. 1920-yilning 27-yanvarida “Barcha turdagi kooperativ tashkilotlarini birlashtirish haqida” dekret chiqarildi. Bu dekret asosan kredit, ssuda-omonat hamkorliklari matlubot soyuzlari bilan birlashtirildi [13. B. 51]. Matlubot uyushmalariga pul mablag‘lari, texnika vositalari va kredit kooperatsiyalarining mulki beriladigan bo‘ldi. Matlubot kooperatsiyalarining markaziy organi bo‘lgan Sentrosoyuz butun mamlakatdagi qishloq xo‘jalik, iste’mol va boshqa turdagi kooperatsiyalarni o‘z atrofida birlashtirdi.

1919-yil 20-martdagi va 1920-yil 27-yanvardagi dekretlar asosida kooperatsiyalarning faoliyat ko‘rsatish prinsiplari belgilab berildi. Ammo kooperatsiyalar faoliyati qayta tashkil etilishi bilan ularning asosiy funksiyalaridan biri bo‘lgan tayyorlov apparati tugatildi [14. B. 94]. Chunki oziq-ovqat razverstkasi sharoitida ularning tayyorlov bo‘yicha faoliyat olib borishi imkonsiz edi. Kooperatsiyalarning bu boradagi faoliyati g‘allani qabul qilish va saqlash bo‘yicha yordamchi ishlarga yo‘naltirildi.

Qayta tashkil etilgan kooperatsiyalar asosiy oziq-ovqat taqsimlovchi organ sifatida talqin qilina boshladi. Tan olish kerakki, oziq-ovqat krizisini bartaraf etishda matlubot kooperatsiyalarining roli katta bo‘ldi. Lekin barcha oziq-ovqat mahsulotlarini, ayniqsa xususiy savdo aylanmasidagi mahsulotlarni bir xilda taqsimlash bitta organ – matlubot kooperatsiyalari tomonidan to‘la-to‘kis amalga oshirilishi juda qiyin edi. Chunki mayda ishlab chiqaruvchilar ehtiyojdan ortiqcha mahsulotlarini davlat tomonidan qat’iy belgilab qo‘yilgan narxlarda sotishni xohlamas, ular turli yo‘llar bilan o‘z mahsulotlarini bozor narxida sotishdan manfaatdor edilar.

1920-yil 27-yanvardagi dekret asosida qayta tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi kooperatsiyalari yangi iqtisodiy siyosatga o‘tgunga qadar shu ko‘rinishda faoliyat ko‘rsatdi. Matlubot kooperatsiyalarining faoliyat ko‘rsatish ko‘lami qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining ahvoliga qarab o‘zgarib turdi. Xo‘jalik ishlab chiqarishi inqirozga uchragan davrda kooperatsiyalarning faoliyati ham sustlashib qoldi. Bu davrda tovar-pul munosabatlari ham tang ahvolga tushib qolar edi. Kooperatsiyalar islohoti kelgusida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini qayta tiklashda tovar-pul munosabatlarini ham tartibga solib borish zarurligini ko‘rsatdi.

1920-yil oxiri va 1921-yil boshlarida bir qancha qishloq xo‘jalik kooperatsiyalari tarqalib ket-

di, ko‘plab tashkilotlar, asosan kredit uyushmalari kooperatsiyalarning boshqa turlariga o‘zgarib ketdi. Ba’zi bir kredit uyushmalari matlubot kooperatsiyalariga qo‘shilib, ularning bo‘limiga aylanib qoldi. Lekin, bunga qaramay, kooperatsiyalar islohoti boshlanmagan hududlarda hatto yangi iqtisodiy siyosatga o‘tishga qadar ham bir qancha qishloq xo‘jalik kooperatsiyalari tuzildi va faoliyat ko‘rsatdi. Kooperativlarning xo‘jalik faoliyatlari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xo‘jalik ishlab chiqarish inqirozi sababli 1920-yilda 1918–1919-yillarga qaraganda keskin qisqardi.

Umuman aytganda, oktyabr to‘ntarishidan keyin o‘tgan uch yil mobaynida kooperatsiya tizimini “kapitalistik” ko‘rinishdan proletar davlati manfaatlariga moslashtirib borildi. Kooperatsiya tizimidagi tub o‘zgarishlar uning butun faoliyatiga ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, kooperatsiya organlarining boshqaruv apparati ham quyidan to yuqorigacha qayta tayinlandi yoki saylandi. Ya’ni, kooperatsiya uyushmalarining boshqaruv hay’atlari ham tamoman proletarlashtirildi. Kooperativlar boshqaruv tarkibiga aholining barcha qatlamlari kiritilishiga e’tibor qaratildi. Kooperatsiyalarga a’zo bo‘lish badallarida ham barchaga tenglik berilishiga e’tibor qaratildi. A’zolik paylari bo‘yicha foydalarni ham barcha a’zolarga teng taqsimlashga rioya qilina boshlandi. Natijada qisqa muddatlarda kooperatsiyalar umumdavlat vazifalarini bajaruvchi markazlashgan tizimga aylana boshladi. Kooperatsiyalarning iqtisodiy imkoniyatlari ham o‘sib bordi. Kooperatsiyalarning barcha turlari 1920-yilda bolsheviklar hokimiyati ostidagi o‘lkalarda 6-7 million dehqon xo‘jaliklarini yoki qariyb 26 million kishini birlashtirgan edi [15. B. 273].

Xulosa

Umuman, kooperativ harakatning boshlanishi aniq maqsadga yo‘nalgan, kichik dehqon xo‘jaliklarini kooperatsiyalarga birlashtirish orqali qayta tashkil etish, mayda tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarni ixtiyoriy ravishda yirik ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga bosqichma-bosqich birlashtirish va yakka tartibdagi ishlab chiqaruvchilarni ham umumiy ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etishga asoslangan edi. Bu yangi tizimda iqtisodiy, siyosiy va madaniy masalalar birdaniga kompleks ravishda hal qilinishi mumkin edi.

Bu tizimda, avvalo, qishloq xo‘jaligi va sanoatda ishlab chiqarish munosabatlarining yagona tizimi shakllandi. Qishloq xo‘jaligida esa jarayon yirik ishlab chiqaruvchi xo‘jalikni joriy etish va ishlab chiqaruvchini umumiy ish yuritishga ko‘niktirishga yo‘naltirildi. Bunda dehqon xo‘jaliklarini ishlab chiqaruvchi kooperativlarga birlashtirish qat’iy ixtiyoriylik prinsiplari asosida, ma’muriyatchilik va majburlash usullarini qo‘llamagan holda, tushuntirish, ishontirish usullari bilan amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratildi. Kooperatsiya orqali mehnatkash dehqonlarga har tomonlama davlat yordami ko‘rsatilishi dehqonlar ko‘z oldida uning haqiqiy ahamiyatini oshirishi kerak edi.

Biroq kooperatsiya iqtisodiy jihatdan dehqon xo‘jaliklarini juda zaif birlashtirgan edi va qishloqda ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga qodir emas edi. Shuningdek, kooperativlar shahar bilan qishloq o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni to‘lasincha yo‘lga qo‘yishga ham ojizlik qilmoqda edi. Kooperatsiyaning taqsimot funksiyasi uni kommunalar, artellar va boshqa qishloq xo‘jalik hamkorliklari bilan yaqinlashishga ixtisoslashmagan edi. Kolxoz harakati hamon kooperatsiya tizimidan xoli ravishda rivojlanishda davom etar edi.

Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yil 17-maydagi “Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasidagi kichik va hunarmandchilik sanoati to‘g‘risida”gi qarori hamda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining “Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi to‘g‘risida” qaroridan so‘ng jadal rivojlana boshladi. Bu davrda, ya’ni yangi iqtisodiy siyosat sharoitida kooperatsiyaning turli shakllari – ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish kabi turlari rivojlana boshladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 йил, 8-сон, 193-модда.
2. *Селунская В.М*. Ленинский кооперативный план в советской историографии. – Москва: Знание, 1974. – 164 с.
3. *Голованов А.А.,* Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX первой трети XX вв. – Самарканд, 2007. – 372 с.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 688 б.
5. Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. Учинчи том. /Бош муҳаррир И.М.Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971.
6. Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане. 1917–1926 гг. Сборник документов. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1962. – 795 с.
7. Советское крестьянство. Краткий очерк истории (1917-1970). /Под ред. В.П. Данилова. – Москва: Политиздат, 1973. – 590 с.
8. *Зак Л.М., Лельчук В.С., Погудин В.И.* Строительство социализма в СССР. Историографический очерк. – Москва: Мысль, 1971. – 318 с.
9. Торжество ленинского кооперативного плана в Узбекистане. /Под ред. М.Г. Вахабова. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 378 с.
10. *Аминова Р.Х*. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.). – Ташкент: Изд-во АН. УзССР, 1963. – 344 с.
11. *Голованов А.А.* Крестьянства Узбекистана: эволюция социального положения. 1917–1937 гг. – Ташкент: Фан, 1992. – 164 с.
12. История крестьянства СССР. История советского крестьянства. Т.1. Крестьянство в первое десятилетие Советской власти 1917–1927. – Москва: Наука, 1986. – 455 с.
13. *Данилов В.П.* К итогам изучения истории советского крестьянства и колхозного строительства в СССР // Вопросы истории, 1960. – № 8. – С. 34–64.
14. *Кабанов В.В.* Ленинский кооперативный план: новые оценки в историографии // Кооперация. Страницы истории. Вып. 1. – Москва, 1991. – С. 90–98.
15. *Месяцев П.А.* Аграрная политика в Советской России. – Москва: Просвещение, 1986. – 344 с.

COOPERATIVE MOVEMENT IN TURKESTAN ASSR AND ITS FEATURES

(1918–1921)

Muzrobjon, G. Abdullaev[1], Ahrorbek, A. Ganiyev[2]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 1(69). 21-29.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

[2]Fergana State University, Fergana, 712000, street Murabbiylar, 19 (Uzbekistan). E-mail: fardu_info@umail.uz

Key words: *Turkestan ASSR, Soviet regime, agrarian policy, cooperation, JLC, agricultural artel, agricultural commune, cotton cooperatives, collective farm, "war communism."*

It is important to consider and analyze the experience of cooperation in Uzbekistan, especially the relationship between the state and cooperation during the years of Soviet power, their real role in the development of individual dekhkan farms.

In the early years of Soviet power, the Turkestan national economy experienced destruction and disaster resulting from the First World War. In 1917, sown areas in Turkestan decreased from 3.5 million acres in 1915 to 2.3 million acres. The decline of agriculture was exacerbated by the drought of 1917, when only 52 million pounds of grain were grown nationwide. At the same time, the need for grain would be 111 million pounds. As a result, famine began in the Turkestan Territory.

At the beginning of 1918, laws on the agrarian issue were adopted in Turkestan. On January 27, the Council of People's Workers' and Soldiers' Deputies of Turkestan approved the law on the IV Seidasynsky Land and Water Committee. The Zemstvo-Water Committees have been tasked with implementing the Soviet land policy. According to the implementation of the decree, all irrigation structures-canals, irrigation networks were transferred to the zemstvo commissariat.

In 1918-1919, 25.6 million pounds of grain were harvested by agricultural cooperatives, which amounted to a quarter of the gross grain harvest grown throughout the country. During this period, the cooperatization of the peasant economy was carried out in three main types of economic relations between the city and the village: matlubot cooperatives, agricultural cooperatives and credit cooperatives. Collective farms began to emerge in the villages: partnerships for joint land cultivation (JLC), agricultural communes, agricultural artels.

The experience of organizing collective farms in Turkestan began in the spring of 1918, in the spring of 1918, 18 agricultural artels and communes were created in the region. By the end of 1918, about 100 agricultural artels began to function in Turkestan. In agriculture of the Turkestan ASSR, the experience of creating cotton cooperatives was most observed. In 1919, 12 cotton cooperatives were created throughout the Turkestan Territory, uniting 73 thousand peasant farms. In 1920, cotton cooperatives reached 56, they included 112 thousand people.

In 1920, the reorganization of cooperatives on a "socialist" basis continued. On January 27, 1920, a decree was issued "On the unification of all types of cooperative organizations." This decree is united mainly by credit, loan and savings unions.

In late 1920 – early 1921, a number of agricultural cooperatives broke up, many organizations, mainly credit, changed to other types of cooperation. Some credit associations joined matlubot cooperatives and became their departments. Nevertheless, in regions where cooperation reform did not begin, before the transition to a new economic policy, several agricultural cooperatives were created and functioned. The economic activities of cooperatives sharply decreased in 1920 compared to 1918-1919 due to the above economic production crisis.

References:

1. (1991) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi [Information of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan]. No 8. Art. 193.

2. Selunskaya, V.M. (1974) *Leninskij kooperativnyj plan v sovetskoj istoriografii*. [Lenin cooperative plan in Soviet historiography]. Moscow: Znanie.

3. Golovanov, A.A., Saidov, I.M. (2007) Dekhkanstvo Uzbekistana na istoricheskom povorote vtoroj poloviny XIX pervoj treti XX vv. [Dekhkanstvo of Uzbekistan at the historical turn of the second half of the XIX first third of the XX centuries]. Samarkand.

4. Jo'rayev, M. (ed.) (2001) *O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida* [A new history of Uzbekistan. Second book. Uzbekistan during the Soviet colonialism]. Tashkent: Sharq.

5. Mo'minov, I.M. (ed.) (1971) *O'zbekiston SSR tarixi.* [History of the Uzbek SSR]. In 4 volumes. Vol. 3. Tashkent: Fan.

6. (1962) *Socialisticheskoe pereustrojstvo sel'skogo hozyajstva v Uzbekistane. 1917–1926 gg*. Sbornik dokumentov. [Socialist reorganization of agriculture in Uzbekistan. 1917-1926]. Collection of documents. Tashkent: Izdatel'stvo AN UzSSR.

7. Danilov, V.P. (ed.) (1973) *Sovetskoe krest'yanstvo. Kratkij ocherk istorii (1917-1970).* [Soviet peasantry. A Brief Sketch of History. 1917-1970]. Moscow: Politizdat.

8. Zak, L.M., Lel'chuk, V.S., Pogudin, V.I *(*1971) *Stroitel'stvo socializma v SSSR. Istoriograficheskij ocherk.* [Construction of socialism in the USSR. Historiographic essay]. Moscow: Mysl'.

9. Vaxabova, M.G. (ed) (1970) *Torzhestvo leninskogo kooperativnogo plana v Uzbekistane*. [Celebration of the Lenin Cooperative Plan in Uzbekistan]. Tashkent: Uzbekistan.

10. Aminova, R.X. (1963) *Agrarnaya politika Sovetskoj vlasti v Uzbekistane (1917-1920 gg.).* [Agrarian policy of Soviet power in Uzbekistan (1917-1920)]. Tashkent: Izdatel'stvo AN. UzSSR.

11. Golovanov, A.A. (1992) *Krest'yanstva Uzbekistana: evolyuciya social'nogo polozheniya. 1917–1937 gg*. [The peasantry of Uzbekistan: the evolution of the social situation. 1917-1937]. Tashkent: Fan.

12. (1986) *Istoriya krestyanstva SSSR. Istoriya sovetskogo krestyanstva. T.1. Krest'yanstvo v pervoe desyatiletie Sovetskoj vlasti 1917–1927*. [History of the peasantry of the USSR. History of the Soviet peasantry. Vol.1. Peasantry in the first decade of Soviet power 1917-1927]. Moscow: Nauka.

13. Danilov,V.P. (1960) K itogam izucheniya istorii sovetskogo krest'yanstva i kolhoznogo stroitel'stva v SSSR [To the results of the study of the history of the Soviet peasantry and collective farm construction in the USSR]. *Voprosy istorii*. No 8. Pp. 34-64.

14. Kabanov, V.V. (1991) Leninskij kooperativnyj plan: novye ocenki v istoriografii. Kooperaciya. Stranicy istorii. [Lenin Cooperative Plan: new assessments in historiography]. *Cooperation. History pages*. No. 1. Moscow. Pp. 90-98.

15. Mesyasev, P.A. (1986) *Agrarnaya politika v Sovetskoj Rossii*. [Agrarian policy in Soviet Russia]. Moscow: Prosveshchenie.

Mualliflar haqida ma'lumot:

ABDULLAYEV Muzrobjon G'ulomovich – tarix fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi professori v.b. E-mail: muzrobjon@list.ru

G'ANIYEV Ahrorbek Abdurahim o'g'li – Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi tadqiqotchisi. E-mail: ganievahrorbek@mail.ru